

4/2024,  
iyul-  
avgust  
(№ 00072)



## OILAVIY MIGRATSIYANING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

**Gaziyeva Sulxiya Saidmashrafvna**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Tashqi iqtisodiy faoliyat va turizm kafedrası o‘qituvchisi, PhD*

**E-mail:** [sulya@mail.ru](mailto:sulya@mail.ru)

**DOI:** [https://doi.org/10.55439/EIT/vol12\\_iss4/i2](https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss4/i2)

### **Annotatsiya**

Globalashuv jarayonining xalqaro migratsiyaga ta’sirining ortishi, uning nazariy asoslarini, xususan, oilaviy migratsiya jarayonlarini tadqiq qilish ko‘plab olimlar uchun dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada muomalaga kiritilgan oilaviy migratsiya tushunchasi bilan bog‘liq bir-nechta atamalarni o‘rganish muhim hisoblanadi.

Ushbu maqolada oilaviy migratsiyaning nazariy asoslari, uni keltirib chiqaruvchi omillar va uning sabablari va shu bilan birga oilaviy migratsiyaning asosiy turlari haqida ma’lumotlar tahlil qilindi. Oilaviy migratsiyaning nafaqat ijobiy, balki salbiy jihatlari ham ko‘rib chiqilib, kerakli taklif va tavsiyalar berildi.

**Kalit so‘zlar:** oilaviy migratsiya, xalqaro mehnat migratsiyasi, oilani birlashtirish migratsiyasi, oila shakllanishi, oila bilan migratsiya, farzand asrab olishning xalqaro migratsiyasi, davlatlararo nikoh.

## НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СЕМЕЙНОЙ МИГРАЦИИ

**Газијева Сульхия Саидмашрафевна**

*Преподаватель кафедры Внешнеэкономической деятельности и туризма Ташкентского государственного университета востоковедения, PhD*

### **Аннотация**

Возрастающее влияние процесса глобализации на международную миграцию, исследование ее теоретических основ, в частности процессов семейной миграции, приобретают актуальное значение для многих ученых. В связи с этим важно изучить несколько терминов, связанных с понятием семейной миграции.

В данной статье были проанализированы теоретические основы семейной миграции, факторы, вызывающие данную миграцию и ее причины, а также информация об основных видах семейной миграции. Были рассмотрены не только положительные, но и отрицательные стороны семейной миграции, даны необходимые предложения и рекомендации.

**Ключевые слова:** семейная миграция, международная трудовая миграция, миграция по воссоединению семьи, формирование семьи, миграция с семьей, миграция по международному усыновлению, межнациональный брак.

## SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF FAMILY MIGRATION

**Gazieva Sulkhya Saidmashrafvna**

*Lecturer at the Department of Foreign Economic Activity and Tourism at Tashkent State University of Oriental Studies, PhD*

**Abstract**

The increasing impact of global migration processes on international migration, particularly the study of family migration processes, is of urgent importance for many scholars. In this context, it is essential to examine several terms related to the concept of family migration that have been introduced into discourse.

This article analyzes the theoretical foundations of family migration, the factors that lead to it, and its causes, while also offering insights into the main types of family migration. Both the positive and negative aspects of family migration are considered, along with necessary suggestions and recommendations.

**Key words:** family migration, international labor migration, family reunification migration, family formation, migration with family, international adoption migration, inter-country marriage.

**Kirish**

Jahondagi ishchi kuchi donorlari va retsipientlarining iqtisodiy rivojlanishida muhim omillardan biri bo'lgan xalqaro mehnat migratsiyasi aynan mamlakatlarda mehnat resurslari balansini optimallashtirish va mahalliy mehnat bozordagi bosimni yumshatishda muhim rol o'ynamoqda. Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot 2022-yilda 281 mln kishi o'z vatanidan tashqarida yashashini, ularning 169 mln.i aynan mehnat migrantlari ekanligini hamda ularning 67,9 foizi yuqori daromadli va 18,6 foizi o'rta daromadli mamlakatlarda to'planganligini ma'lum qiladi<sup>1</sup>. Xalqaro migrantlar tarkibida yakka o'zi migratsiyani amalga oshirgan insonlar bilan birgalikda, oila a'zolari bilan migratsiya qilgan migrantlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro migratsiya tashkiloti hisobotiga ko'ra, 2022-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) mamlakatlariga tashrif buyurgan migrantlarning 40 foizi aynan oilaviy sabablarga ko'ra tashrif buyurgan va ushbu ko'rsatkich 2,2 mln. migrantni tashkil qildi<sup>2</sup>.

Umuman olganda, migratsiya jarayonlarini hisobini olib borish ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Jahon miqyosida 281 mln migrantlar bo'lsa, ularning 60 foizini mehnat migrantlari, 10 foizini bolalar, 12,5 foizini qochoqlar, 12,8 foizini talaba migrantlar va boshqalar tashkil etadi. Shuni ta'kidlash joizki, ushbu migrantlar ichida oilaviy migrant bo'lganlarni ajratib olish aslida qiyin hisoblanadi. Sababi, mehnat migrantlari ham, talaba migrantlari ham va shunchaki migrant sifatida ko'chganlar ichida oilasi bilan ketganlar soni kam emas.

Aynan migrantlar soni ichida oilaviy migrantlarning ulushini bilish uchun xalqaro oilaviy vizalar sonini bilish muhim hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich orqali ham jahon miqyosida necha kishi oilaviy migratsiyani amalga oshirganligini bilish mumkin. Oilaviy vizalarni o'rganib chiqishdan avval, jahondagi top 5 ta diasporalarni o'rganib chiqishni joiz bildik. Diasporalarning ko'pligi ham o'z o'rnida retsipiyent mamlakatga donor mamlakatdan qarindoshlari yoki tanishlari oldiga harakatlanib borayotgan oilaviy migrantlarni ko'rish mumkin.

<sup>1</sup> World Migration Report 2022. International Organization for Migration (IOM), Geneva, page 2

<sup>2</sup> IOM GMDAC 2023, migrationdataportal.org

Oilaviy migratsiyani oʻrganar ekanmiz, uni nafaqat ijobiy balki salbiy jihatlarini ham eʼtirof etish joiz deb bilamiz. Oilaviy migratsiyaning eng katta ijobiy tarafi oilalar birlashuvi boʻlsa, salbiy tarafi esa oilaviy migratsiyani amalga oshirgan oilalarning aksar qismi donor mamlakatga qaytib kelmasliklari kuzatiladi.

### **Adabiyotlar sharhi**

1980-yillarning oxiridan boshlab oilaviy migratsiyaga oid nazariy va uslubiy tadqiqotlar ilmiy ish mavzusi sifatida oʻrganila boshlandi. Amerikalik olim M.Boyd<sup>3</sup> oilaviy migratsiyalarning tobora kengayib borayotgani haqida (Boyd, 1989), Hania Zlotnik<sup>4</sup> oilaviy migratsiyada ayollarning oʻrni oshib borayotgani (Zlotnik, 1995), tadqiqotchilar Stark va Bloom<sup>5</sup> esa, oila va uy xoʻjaligi mehnat migratsiyasining yangi iqtisodiyoti sifatida tahlil qildilar (Stark va Bloom 1985).

Oksford universiteti tadqiqotchilari de Haas & Fokkema<sup>6</sup> tomonidan oilaviy migratsiyaning salbiy jihatlarini oʻrganildi, yaʼni oilaviy mamlakatni tark etgan migrantlarning qaytib kelish ehtimoli pastligi baholandi (de Haas & Fokkema, 2010). Tadqiqotchi Mincer<sup>7</sup> tomonidan ichki migratsiyada oilaning roli (Mincer, 1978), Kofman<sup>8</sup> fikriga koʻra, oilaviy migratsiyada ayollar va bolalarning oʻrni katta hisoblanadi (Kofman 2004).

Shu bilan birgalikda qator olimlar oilaviy migratsiyani oilalarni birlashtirish nuqtai nazaridan oʻrganib, bular sirasiga Ambrosini va boshqalar<sup>9</sup>, 2014; Barbiano di Belgiojoso & Terzera<sup>10</sup>, 2018; Fonseca & Ormond<sup>11</sup>, 2008, Gonsales-Ferrer<sup>12</sup>, 2011 kabi olimlar kiradi.

Tadqiqotchi Schiller<sup>13</sup> oilaviy migratsiyani amalga oshirishda doʻstlar va qarindoshlarning ahamiyati (Schiller va boshq., 1995). 2000-yillarning boshida tadqiqotchi Bryceson va Vuorela<sup>14</sup> oilaviy migratsiyani retsipient va donor mamlakatlar nuqtai nazaridan tahlil qildilar (Bryceson va Vuorela, 2002).

Wall va Bolzman<sup>15</sup> tomonidan oilaviy migratsiyada ayollar taʼsirining kuchayib borayotgani haqida tadqiqotlar olib borildi (Wall & Bolzman, 2013). Tadqiqotchi Grillo<sup>16</sup> qabul qiluvchi mamlakat siyosatida oilaviy migrantlarning markaziy oʻrinda ekanliklarini taʼkidladi (Grillo 2008).

### **Tadqiqot metodologiyasi**

<sup>3</sup> Boyd, M. (1989). Family and personal networks in international migration: Recent developments and new agendas. *International Migration Review*, 23(3), 638–670.

<sup>4</sup> Zlotnik, H. (1995). Migration and the family: The female perspective. *Asian and Pacific Migration Journal*, 4(2–3), 253–271.

<sup>5</sup> Stark, O., & Bloom, D. (1985). The new economics of labor migration. *American Economic Review*, 75, 173–178.

<sup>6</sup> De Haas, H., & Fokkema, T. (2010). Intra-household conflicts in migration decisionmaking: Return and pendulum migration in Morocco. *Population and Development Review*, 36, 541–556.

<sup>7</sup> Mincer, J. (1978). Family migration decisions. *Journal of Political Economy*, 86(5), 749–773.

<sup>8</sup> Kofman, E. (2004). Family-related migration: A critical review of European Studies. *Journal of Ethnic and Migration Studies*, 30(2),

<sup>9</sup> Ambrosini, M., Bonizzoni, P., & Triandafyllidou, A. (2014). Family migration in southern Europe: Integration challenges and transnational dynamics: An introduction. *International Review of Sociology*, 24(3), 367–373.

<sup>10</sup> Barbiano di Belgiojoso, E., & Terzera, L. (2018). Family reunification: Who, when, and how? Family trajectories among migrants in Italy. *Demographic Research*, 38, 737–772

<sup>11</sup> Fonseca, M. L., & Ormond, M. (2008). Defining ‘family’ and bringing it together: The ins and outs of family reunification in Portugal. In *The family in question immigrant and ethnic minorities in multicultural Europe* (pp. 89–111). IMISCOE-AUP.

<sup>12</sup> González-Ferrer, A. (2011). Spousal reunification among recent immigrants in Spain: Links with undocumented migration and the labour market. In *Gender, generations and the family in international migration* (pp. 193–218).

<sup>13</sup> Schiller, N. G., Basch, L., & Blanc, C. S. (1995). From immigrant to transmigrant: Theorizing transnational migration. *Anthropological*

<sup>14</sup> Bryceson, D., & Vuorela, U. (Eds.). (2002). *The transnational family: New European frontiers and global networks*. Berg.

<sup>15</sup> Wall, K., & Bolzman, C. (2013). Mapping the new plurality of transnational families: A life course perspective. In *Transnational families, migration and the circulation of care* (pp. 77–93). Routledge.

<sup>16</sup> Grillo, R. (Ed.). (2008). *The family in question. Immigrant and ethnic minorities in multicultural Europe* (IMISCOE Research). University of Amsterdam Press.

Maqolada tadqiqotning nazariy va empirik usullaridan foydalandik. Maqolada soʻnggi tadqiqot nashrlari tahlili berilgan, olingan natijalar statistik ma'lumotlar bilan taqqoslangan, soʻrov natijalari asosida olingan amaliy tavsiyalar berilgan. Muallif metodologiyasida tizimli yondashuv, kuzatish, taqqoslash, mavhumlashtirish, ideallashtirish va guruhlash usullari qoʻllanilgan. Tadqiqot natijalarini vizualizatsiya qilish uchun grafik usulidan foydalanilgan.

### **Natijalar va muhokamalar**

Globalashgan dunyoda mehnat migratsiyasi va uning yoʻnalishining oʻzgarish muammosi olimlar (iqtisodchilar, demograflar, sotsiologlar)ning tadqiqot obyekti boʻlib, davlat institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarining diqqat markazida boʻlmoqda. Mehnat migratsiyasi ommaviy axborot vositalarida va ilmiy adabiyotlarda faol muhokama qilinar ekan. Oila migratsiyasi muhokama mavzusiga aylanib ulgurgan. Aslida, muammo yanada murakkabroq. Mahalliy va xorijiy mutaxassislarning ilmiy yutuqlari bandlik bilan bogʻliq ijtimoiy-iqtisodiy xarakterdagi muammolarni oʻrganishga bagʻishlangan boʻlsada, koʻpgina ilmiy nashrlarda axborot jamiyati yaratayotgan imkoniyatlarga yetarlicha eʼtibor berilmayapti.

**1-jadval**

### **Yillar kesimida tadqiqotchi olimlar tomonidan oila migratsiyasi boʻyicha qarashlar klassifikatsiyasi<sup>17</sup>**

<b>T r</b>	<b>Yillar</b>	<b>Oila migratsiyasi</b>
<b>1</b>	<b>1980-1990</b>	Mincer <sup>18</sup> ichki migratsiyada oilaning roli, M.Boyd <sup>19</sup> oilaviy migratsiyalarning mamlakatlar iqtisodiyotida tobora kengayib borayotgani, Stark va Bloom <sup>20</sup> oila va uy xoʻjaligi mehnat migratsiyasining yangi iqtisodiyoti sifatida koʻrildi
<b>2</b>	<b>1990-2000</b>	Hania Zlotnik <sup>21</sup> oilaviy migratsiyada ayollarning oʻrni oshib borayotgani, Schiller <sup>22</sup> oilaviy migratsiyani amalga oshirishda doʻstlar va qarindoshlarning ahamiyati oʻrganildi.
<b>3</b>	<b>2000-2010</b>	Bryceson va Vuorela <sup>23</sup> oilaviy migratsiyani retsipient va donor mamlakatlar nuqtai nazaridan tahlili, Naomi Bushin <sup>24</sup> oila migratsiyasi sabablari sifatida bolalarning oilalardagi ishtiroki, Grillo <sup>25</sup> qabul qiluvchi mamlakat siyosatida oilaviy migrantlarning markaziy oʻrinda ekanliklari, T.N. Yudina <sup>26</sup> oilaviy migratsiyaning nikoh tuzilishi va oilalarning koʻchishi bilan bogʻlanganligi tahlil qilindi.
<b>4</b>		Wall va Bolzman <sup>27</sup> tomonidan oilaviy migratsiyada ayollar taʼsirining kuchayib borayotgani,

<sup>17</sup> Maʼlumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

<sup>18</sup> Mincer, J. (1978). Family migration decisions. *Journal of Political Economy*, 86(5), 749–773.

<sup>19</sup> Boyd, M. (1989). Family and personal networks in international migration: Recent developments and new agendas. *International Migration Review*, 23(3), 638–670.

<sup>20</sup> Stark, O., & Bloom, D. (1985). The new economics of labor migration. *American Economic Review*, 75, 173–178.

<sup>21</sup> Zlotnik, H. (1995). Migration and the family: The female perspective. *Asian and Pacific Migration Journal*, 4(2–3), 253–

<sup>22</sup> Schiller, N. G., Basch, L., & Blanc, C. S. (1995). From immigrant to transmigrant: Theorizing transnational migration. *Anthropological Quarterly*, 48–63.

<sup>23</sup> Bryceson, D., & Vuorela, U. (Eds.). (2002). *The transnational family: New European frontiers and global networks*. Be

<sup>24</sup> N. Bushin (2008). Researching family migration decision – making: a children –in- families approach. *Population*,

<sup>25</sup> Grillo, R. (Ed.). (2008). *The family in question. Immigrant and ethnic minorities in multicultural Europe (IMISCOE Research)*. University of Amsterdam Press.

<sup>26</sup> Юдина Т.Н. Миграция: словарь основных терминов. - М.: 2007г. -20 с.

<sup>27</sup> Wall, K., & Bolzman, C. (2013). Mapping the new plurality of transnational families: A life course perspective. In *Transnational families, migration and the circulation of care* (pp. 77–93). Routledge.

T r	Yillar	Oila migratsiyasi
	2010-2020	Denise L. Spitzer <sup>28</sup> oila migratsiyasi oilalarning birgalikda ko‘chib ketishi yoki qarindoshi yoniga borishi, O. D. Vorobyev va A.V. Topilin <sup>29</sup> aholi migratsiyasining asosiy kategoriyalaridan biri, oilani birlashirish uchun amalga oshiriladigan migratsiya sifatida o‘rganildi.
5	2020-2025	Christina Hughes, Prem Bhandari <sup>30</sup> oilaviy migratsiya ekonometrik modellar asosida tahlil qilindi, Brian Joseph, Clara Mulder <sup>31</sup> oilaviy migratsiyaning ko‘chib ketish motivlari o‘rganilgan Brian Joseph va boshqalar <sup>32</sup> oilaviy miigrantlarning qaytib kelish motivlari N.Tkacheva va A.Yudashkin <sup>33</sup> Tyumenga kirib kelayotgan MDH oilaviy migrantlar statistikasi tahlil qilingan,
6	2020-2025 (mahalliy olimlar)	M.Bo‘riyeva <sup>34</sup> migrant oilalarda migratsiya sababli er-xotin munosabatlarida yuzaga keladigan omillar, M.Bahriddinova va K.Omanova <sup>35</sup> oila migratsiyasining dolzarb masalalari, N.Egamberdiyeva, X.Abdusamatov, D.Madjidova <sup>36</sup> oila barqarorligiga oila migratsiyasining ta‘siri o‘rganilgan, B.Xonto‘rayev <sup>37</sup> oila migratsiyasi va uning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga ta‘siri o‘rganilgan

Bizga ma’lum bo‘lgan nazariy yondashuvlarga ko‘ra, mehnat migratsiyasi -mehnat resurslarining mehnat bozoridagi talab va taklif nisbati bilan belgilanadigan, migrant kelib chiqqan mamlakat yoki doimiy yashash hududiga nisbatan qulayroq shartlarda ishga joylashish maqsadida harakatlanish jarayoni bo‘lib, u hududiga, muddatiga, qonuniy mavqe‘iga va maqsadiga ko‘ra tasniflanadi.

Tabiiyki, mehnat migratsiyasi jarayonlarining rivojlanishi bilan uning yangi turlari paydo bo‘ladi va unga mos ravishda tasnifni to‘ldirish va takomillashtirish zarurati yuzaga keladi. Shunday turlaridan biri sifatida oilaviy migratsiya hisoblanadi.

Oilaviy migratsiya “family migration” deganda, o‘z oila a‘zolari bilan boshqa mamlakat yoki mintaqaga ko‘chib o‘tayotgan shaxslarning ko‘chishi tushuniladi. Ushbu turdagi migratsiya ilk bor 1978-yilda tadqiqotchi Mincer tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, endi migrantlar deganda yakka shaxs emas, balki oilaviy migratsiya ham nazarda tutilishi ta’kidlangan.

<sup>28</sup> Denise L. Spitzer. (2013). Family Oriented Migration Policies&Social Integration. NYC.2018 May

<sup>29</sup> Воробьев О.Д., Топилина А.В. Миграция населения: теория и политика. Учебное пособие. -М.: 2012г. 15ст.

<sup>30</sup> Christina Hughes, Prem Bhandari (2020) Family Obligation Attitudes, Gender, and Migration. Int J Sociol; 50(4): 237–264.

<sup>31</sup> Brian Joseph Gillespie, Clara H. Mulder & Michael J. Thomas (2021) Migration for family and labour market outcomes in Sweden, Population Studies, 75:2,

<sup>32</sup> Brian Joseph Gillespie, Clara H. Mulder, Christiane von Reichert. The Role of Family and Friends in Return Migration and Its Labor Market Outcomes Population Research and Policy Review (2022) 41:115–138

<sup>33</sup> Н. А. Ткачева, А. В. Юдашкин. Семьи с миграционной историей в контексте политики социального развития региона -Известия высших учебных заведений. Социология. Экономика. Политика. – 2023. – № 4. – С. 142–161.

<sup>34</sup> М. Bo‘riyeva 2023. Migrant oilalaridagi er-xotin munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlari. Academic Research in Educational Sciences, V 4, issue 6.

<sup>35</sup> M.Bahriddinova va K.Omanova 2024. Oila migratsiyasining dolzarb masalalari, Konferensiya to‘plami 137-141 b. Toshkent.

<sup>36</sup> N.Egamberdiyeva, X.Abdusamatov, D.Madjidova 2023. Oila barqarorligiga oila migratsiyasining ta‘siri. “Mahalla va oila” nashriyoti, 152 b.

<sup>37</sup> B.Xonto‘rayev 2022. Oila migratsiyasi va uning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga ta‘siri. Ilmiy-axborot tahlilii ishlanma. T. 44 bet.



Xorij adabiyotlarida oilaviy migratsiya iborasiga ko‘plab ma‘nodosh iboralar qo‘llaniladi, bular, “family reunification”, “family-based immigration”, “family immigration”, “family sponsorship”, “kinship migration” va “relational migration”. Ushbu iboralarning barchasi oilaviy migratsiya tushunchasini ifoda etadi.

Maqsad, qonuniy asoslar va oilaviy dinamika kabi turli omillarga ko‘ra oilaviy migratsiyani bir necha turlarga bo‘lish mumkin. Oilaviy migratsiyaning sabablariga ko‘ra bir necha keng tarqalgan turlari mavjud bo‘lib, ularni birma-bir ko‘rib chiqamiz:

1. Oilani birlashtirish migratsiyasi (Family Reunification Migration) - bu avval boshqa davlatga ko‘chib kelgan oila a‘zolari o‘z qarindoshlari bilan qo‘shilishga intilishganda sodir bo‘ladi. Bunga ko‘pincha immigrantlarga turmush o‘rtog‘i, farzandlari yoki boshqa qarindoshlarini mamlakatga olib kirishga ruxsat beruvchi oilalarni birlashtirish siyosati yordam beradi.

2. Oila bilan mehnat migratsiyasi (Labor Migration with Family) -bu turdagi shaxslar ishlash uchun migratsiya qiladilar va o‘zlari bilan yaqin oila a'zolarini olib keladilar. Bu qurilish, qishloq xo‘jaligi yoki xizmat ko‘rsatish kabi sohalardagi mehnat migrantlari orasida keng tarqalgan.

3. Qochoq yoki boshpana izlovchi migratsiya (Refugee or Asylum-Seeking Migration) - oilalar mojaro, ta‘qib yoki zo‘ravonlikdan qochganlarida birga ko‘chib ketishlari mumkin. Bu boshqa davlatdan boshpana izlash uchun xavfli vaziyatlardan qochib qutulgan butun oilalar yoki oila a'zolarini o‘z ichiga olishi mumkin.

4. Doimiy rezidentlar migratsiyasi (Permanent Resident Migration) - oilalar oila asosidagi immigratsiyaga ruxsat beruvchi turli vizalar yoki dasturlar orqali doimiy yashash uchun boshqa mamlakatga ko‘chib o‘tishlari mumkin.

5. Ta'lim migratsiyasi (Education Migration) - ba'zi oilalar o‘z farzandlariga yaxshiroq ta'lim olish imkoniyatini berish uchun ko‘chib o‘tadilar. Bu oilalar ko‘pincha ta'lim tizimi yaxshi bo‘lgan mamlakatlarga ko‘chib o‘tadigan boshlang‘ich, o‘rta yoki oliy ta'lim uchun migratsiyani o‘z ichiga olishi mumkin.

6. Farzand asrab olishning xalqaro migratsiyasi (International Adoption Migration) - oilalar boshqa mamlakatlardan bolalarni asrab olishni o‘z ichiga olgan migratsiya bilan shug‘ullanishi mumkin, bu esa bolalarning boshqa millatdagi yangi oilalariga qo‘shilishlariga imkon beruvchi qonuniy oilaviy kelishuvga olib kelishi mumkin.

7. Oila bilan mavsumiy yoki vaqtinchalik migratsiya (Seasonal or Temporary Migration with Family) - ba'zi oilalar, ayniqsa qishloq xo‘jaligi sharoitida, mavsumiy migratsiya bilan shug‘ullanadilar, ular ma'lum mavsumlarda vaqtincha ishlash uchun ko‘chib o‘tadilar va keyin o‘z mamlakatiga yoki mintaqasiga qaytadilar.

8. Davlatlararo nikoh (Inter-country Marriage) - oilalar transchegaraviy nikohlar natijasida migratsiya qilishlari mumkin, bu yerda sheriklardan biri boshqa mamlakatdan bo‘ladi. Bu tur ko‘pincha oilani birlashtirish jarayonlariga olib keladi, chunki er-xotin qayerda yashashni hal qiladi.

Xalqaro migratsiya tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, yuqoridagi keltirilgan asosiy oilaviy migratsiyaning 4 turi tahlil qilingan:

- 1- oilani birlashtirish migratsiyasi
- 2- oila shakllanishi
- 3- oila bilan migratsiya
- 4- farzand asrab olishning xalqaro migratsiyasi

2022-yildagi XMT ma'lumotlariga ko'ra, jami 2,2 mln. kishi oilasi bilan migratsiyani amalga oshirgan kishilarning 1,58 mln.i birinchi va ikkinchi turdagi migrantlar bo'lib, 593 043 kishi oilasi bilan hamroxlikda migratsiyani amalga oshirgan<sup>38</sup>.

Oilaviy migratsiyani amalga oshirishda bir nechta omillar turtki bo'lib xizmat qiladi.

**2-jadval**

**Oilaviy migratsiyaning asosiy sabablari<sup>39</sup>**

t/r	Sabablar	Ta'rif
1	<b>Iqtisodiy</b>	Oilalar yaxshi ish imkoniyatlari, yashash sharoitlarini yaxshilash yoki yuqori ish haqi izlab ko'chib ketishlari mumkin.
2	<b>Siyosiy</b>	Ba'zi oilalar o'z vatanidagi ta'qiblar, mojarolar yoki siyosiy beqarorlikdan qochib, xavfsizlikni istab ko'chib ketadilar.
3	<b>Oilani birlashtirish</b>	Oila migratsiyasi ko'pincha boshqa mamlakatga ko'chib o'tgan oila a'zolari o'z qarindoshlari bilan uchrashishga intilishganda sodir bo'ladi. Bu turmush o'rtoqlar, bolalar yoki boshqa oila a'zolarini o'z ichiga olishi mumkin.
4	<b>Ta'lim imkoniyatlari</b>	Oilalar o'z farzandlari yoki o'zlari uchun yaxshiroq ta'lim imkoniyatlarini ta'minlash, yaxshiroq maktab va universitetlarga kirish uchun migratsiyani tanlashlari mumkin.
5	<b>Atrof-muhit omillari</b>	Iqlim o'zgarishi, tabiiy ofatlar yoki noqulay yashash sharoitlari kabi ekologik sabablar ham oilalarni yanada barqaror muhit izlab ko'chib ketishiga olib kelishi mumkin.

Oilaviy migratsiya global migratsiya tendensiyalarining muhim jihati bo'lib, insonlarning ko'chib o'tishga qaror qilishiga ta'sir qiluvchi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aks ettiradi.

**Xulosa va takliflar**

Tadqiqotimiz natijasida, biz oilaviy migratsiyani qo'llab-quvvatlash lozim yoki aksincha oilaviy migratsiyani oldini olish uchun mamlakatlar qattiq siyosat olib borishi kerak degan g'oyadan yiroqmiz. Oilaviy migratsiya tabiiy jarayon bo'lib, yillar kesimida uni chuqur tahlil qilish darkorligi dolzarb masalalardan biri ekanligini ta'kidlash joiz.

Oilaviy migratsiya ko'plab ijobiy jihatlarga ega bo'lib, oilalarning iqtisodiy imkoniyatlarini yaxshilashga, yaxshiroq ish sharoitlari va yashash sharoitlari, rivojlangan mamlakatda ta'lim olish imkoniyati, o'z navbatida yosh avlodning rivojlanishiga yordamini ta'kidlash muhim. Shu bilan birgalikda, yaxshiroq tibbiy yordam olish imkoniyatlarining oshishi, yangi tillarni o'rganish imkoniyati, yangi ko'nikmalar va tajribalar olish imkoniyati, ijtimoiy barqarorlikning ta'minlanishi kabi ijobiy jihatlari bilan birgalikda salbiy jihatlari ham ko'rsak.

Oilaviy migratsiyaning salbiy jihatlari qiyinchiliklar, muammolar va moslashish jarayonlarini keltirib chiqarishi mumkin. Yangi joyga ko'chish natijasida oilalar o'z umumiy do'stalaridan va yaqinlaridan, oilaviy aloqalaridan ajralishi mumkin. Ushbu izolyatsiya, kelgusida ijtimoiy qiyinchiliklar va depressiya sabab bo'lishi mumkin. Yangi mamlakat yoki mintaqa madaniyatiga moslashish jarayoni qiyin bo'lishi mumkin. Farzandlar va kattalar

<sup>38</sup> IOM GMDAC 2023, migrationdataportal.org

<sup>39</sup> Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

o'rtasida madaniy tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Yangi joyda yangi tilni o'rganish zaruriyati, oilaning barcha a'zolari uchun ko'plab to'siqlar va qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Tilni bilmaslik, ta'lim va ishga joylashishda qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Yangi joyda ish topish qiyin bo'lishi mumkin, ayniqsa, ushbu mamlakatning iqtisodiy sharoitlari o'zgaruvchan bo'lsa yoki malakali ishchilar talab etilmasa. Bu, oilaning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yangi joyda sog'liqni saqlash tizimi va xizmatlari haqida ko'p ma'lumotga ega bo'lmaslik, kerakli tibbiy yordam olishda muammolarga olib kelishi mumkin. Migratsiya jarayoni stress va muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Oilaning a'zolari psixologik jihatdan qo'rquv, tashvish, uyqusizlik va depressiyaga duch kelishi mumkin. Eng asosiysi, yangi muhitda farzandlarga tarbiya berish qiyinlashishi mumkin. Ota-onalar madaniyat, til va yangi sharoitlar bilan bog'liq muammolarni hal qilishda qiynalishi mumkin. Migrant oilalar ko'pincha migrantlarning huquqi haqida bilmasliklari mumkin va muammolarga duch kelishlari mumkin. Va shuni alohida ta'kidlash joizki, oilalarning yangi joyga ko'chishi bilan, ularning vatanida qoldirilgan qo'shni va do'stlarga bo'lgan sog'inchi hissi kuchayishi mumkin, bu esa ruhiy holatga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Oilaviy migratsiya ko'plab ijobiy jihatlarga ega bo'lgan bo'lsa-da, uning salbiy tomonlarini ham hisobga olish muhimdir. Migrant oilalar uchun bu muammolarni hal qilish, ularni yengib o'tish va yangi sharoitlarga moslashish ko'plab sabr-toqat va qo'llab-quvvatlashni talab qiladi.

Oilaviy migratsiya jarayonlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bir qancha taklif va tavsiyalar berish mumkin. Ushbu tavsiyalar oilaning har bir a'zosining farovonligini oshirish, yangi muhitga moslashishni osonlashtirish va migratsiya jarayonini yaxshilashga yordam beradi:

- oilaviy migratsiyani oldindan rejalashtirish, ya'ni retsipient mamlakat haqida uning iqtisodiy sharoiti, ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash xizmatlari va ijtimoiy muhit haqida batafsil ma'lumotlar to'plash kerak. Shu bilan birgalikda, oilaviy migratsiyada tajribaga ega bo'lgan insonlar bilan suhbatlar olib borib, foydali maslahatlar olish mumkin.

- moliyaviy masalalarni rejalashtirish, ya'ni yangi joyda yashash, oziq-ovqat va ta'lim xarajatlarini aniqlashtirib olish va favqulodda holatlar uchun moliyaviy zaxiraga ega bo'lish kerak.

- oila a'zolarini tayyorlash, ya'ni har bir oila a'zosining yangi joyga ko'chish haqidagi fikrlarini va his-tuyg'ularini muhokama qilish va farzandlarga yangi maktab, yangi tilga o'rganishda yordam berish kerak.

- ijtimoiy aloqalarni o'rnatish, ya'ni mahalliy jamoalarni o'rganish: Yangi joyda mahalliy jamoalar va guruhlar bilan tanishish.

- sog'liqni saqlash va ta'lim ya'ni, yangi joyda tibbiy xizmatlar, shifokorlar va dorixonalar haqida ma'lumot olish darkor

- xulq-atvor va madaniyatga moslashish, ya'ni yangi joyning madaniyatini va odo-axloq qoidalarini o'rganish, yangi muhitga tezroq moslashishga yordam beradi.

- psixologik tayyorgarlik, ya'ni migratsiya jarayoni ruhiy qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Zarur hollarda psixologik yordamdan foydalansih kerak.

Ushbu takliflar oilaviy migratsiya jarayonini yaxshilash, yangi joyda oila a'zolari uchun qulay va muvaffaqiyatli hayot yaratishga yordam beradi. Har bir oilaning vaziyatiga ajratilgan yondashuv zarur bo'lib, oilalar o'zlarining maxsus ehtiyojlariga mos ravishda bu tavsiyalardan foydalanishlari mumkin.



## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Boyd, M. (1989). Family and personal networks in international migration: Recent developments and new agendas. *International Migration Review*, 23(3), 638–670.
2. Zlotnik, H. (1995). Migration and the family: The female perspective. *Asian and Pacific Migration Journal*, 4(2–3), 253–271.
3. Stark, O., & Bloom, D. (1985). The new economics of labor migration. *American Economic Review*, 75, 173–178.
4. De Haas, H., & Fokkema, T. (2010). Intra-household conflicts in migration decisionmaking: Return and pendulum migration in Morocco. *Population and Development Review*, 36, 541–556.
5. Mincer, J. (1978). Family migration decisions. *Journal of Political Economy*, 86(5), 749–773.
6. Kofman, E. (2004). Family-related migration: A critical review of European Studies. *Journal of Ethnic and Migration Studies*, 30(2), 243–262
7. Ambrosini, M., Bonizzoni, P., & Triandafyllidou, A. (2014). Family migration in southern Europe: Integration challenges and transnational dynamics: An introduction. *International Review of Sociology*, 24(3), 367–373.
8. Barbiano di Belgiojoso, E., & Terzera, L. (2018). Family reunification: Who, when, and how? Family trajectories among migrants in Italy. *Demographic Research*, 38, 737–772
9. Fonseca, M. L., & Ormond, M. (2008). Defining ‘family’ and bringing it together: The ins and outs of family reunification in Portugal. In *The family in question immigrant and ethnic minorities in multicultural Europe* (pp. 89–111). IMISCOE-AUP.
10. González-Ferrer, A. (2011). Spousal reunification among recent immigrants in Spain: Links with undocumented migration and the labour market. In *Gender, generations and the family in international migration* (pp. 193–218).
11. Schiller, N. G., Basch, L., & Blanc, C. S. (1995). From immigrant to transmigrant: Theorizing transnational migration. *Anthropological Quarterly*, 48–63.
12. Stark, O., & Bloom, D. (1985). The new economics of labor migration. *American Economic Review*, 75, 173–178.
13. Bryceson, D., & Vuorela, U. (Eds.). (2002). *The transnational family: New European frontiers and global networks*. Berg.
14. N. Bushin (2008). Researching family migration decision – making: a children –in-families approach. *Population, Space and Place*
15. Grillo, R. (Ed.). (2008). *The family in question. Immigrant and ethnic minorities in multicultural Europe* (IMISCOE Research). University of Amsterdam Press.
16. Юдина Т.Н. Миграция: словарь основных терминов. - М.: 2007г. -20 с.
17. Wall, K., & Bolzman, C. (2013). Mapping the new plurality of transnational families: A life course perspective. In *Transnational families, migration and the circulation of care* (pp. 77–93). Routledge.
18. Denise L. Spitzer. (2013). *Family Oriented Migration Policies&Social Integration*. NYC.2018 May
19. Brian Joseph Gillespie, Clara H. Mulder, Christiane von Reichert. The Role of Family and Friends in Return Migration and Its Labor Market Outcomes *Population Research and Policy Review* (2022) 41:115–138

20. Н. А. Ткачева, А. В. Юдашкин. Семьи с миграционной историей в контексте политики социального развития региона -Известия высших учебных заведений. Социология. Экономика. Политика. – 2023. – № 4. – С. 142–161.

21. Воробьев О.Д., Топилина А.В. Миграция населения: теория и политика. Учебное пособие. -М.: 2012г. 15ст.

22. Christina Hughes, Prem Bhandari (2020) Family Obligation Attitudes, Gender, and Migration. Int J Sociol; 50(4): 237–264.

23. Brian Joseph Gillespie, Clara H. Mulder & Michael J. Thomas (2021) Migration for family and labour market outcomes in Sweden, Population Studies, 75:2.

24. M. Bo'riyeva 2023. Migrant oilalaridagi er-xotin munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari. Academic Research in Educational Sciences, V 4, issue 6.

25. M.Bahriddinova va K.Omanova 2024. Oila migratsiyasining dolzarb masalalari, Konferensiya to'plami 137-141 b. Toshkent.

26. N.Egamberdiyeva, X.Abdusamatov, D.Madjidova 2023. Oila barqarorligiga oila migratsiyasining ta'siri. “Mahalla va oila” nashriyoti, 152 b.

27. B.Xonto'rayev 2022. Oila migratsiyasi va uning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga ta'siri. Ilmiy-axborot tahliliy ishlanma. T. 44 bet.